

**“ONA-BOLA” MAVZUSIDAGI O‘ZBEK XALQ MAQOLLARINING
SEMANTIK XUSUSIYATLARI****Ravshanova Madina Zafarbek qizi***University of Business and Science**O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada “ona-bola” mavzusidagi o‘zbek xalq maqollarining semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqollarda ona va bola o‘rtasidagi mehr-muhabbat, qarindoshlik rishtalari, tarbiya, oila, ona mas‘uliyati hamda farzandning ota-onaga munosabati bilan bog‘liq mazmuniy qatlamlar tadqiq etiladi. Shuningdek, “ona” va “bola” konseptlarining o‘zbek xalqining milliy-madaniy dunyoqarashi, ma‘naviy-axloqiy qadriyatlari va hayotiy tajribasi bilan aloqadorligi ochib beriladi. Maqollarning semantik tuzilishida antonimik, sinonimik, metaforik va ramziy munosabatlarning namoyon bo‘lishi hamda ularning mazmunni shakllantirishdagi o‘rni aniqlanadi. Tadqiqot natijasida “ona-bola” mavzusidagi maqollar xalqning oilaviy qadriyatlari, milliy mentaliteti va avlodlararo munosabatlarini ixcham va obrazli tarzda ifodalovchi paremiologik birliklar ekanligi asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *o‘zbek xalq maqollari, ona-bola, semantika, paremiologiya, konsept, ona obrazi, bola obrazi, oilaviy qadriyatlar, milliy mentalitet, xalq dunyoqarashi, maqol, semantik munosabat.*

Abstract. *This article analyzes the semantic features of Uzbek proverbs related to the theme of “mother and child.” The study examines the semantic layers associated with maternal love, the relationship between mother and child, kinship, upbringing, family values, maternal responsibility, and children’s attitudes toward their parents. Particular attention is paid to the concepts of “mother” and “child” and their connection with the national and cultural worldview, moral values, and life experience of the Uzbek people. The article also explores the manifestation of antonymic, synonymous, metaphorical, and symbolic relations within the semantic structure of these proverbs and their role in shaping meaning. The study demonstrates that Uzbek proverbs on the “mother and child” theme are important paremiological units that concisely and figuratively express family values, national mentality, and intergenerational relationships.*

Keywords: *Uzbek folk proverbs, mother and child, semantics, paremiology, concept, mother image, child image, family values, national mentality, folk worldview, proverb, semantic relations.*

Grammatik jixatdan gap xolida shakllangan xalq donishmandligi natijasida vujudga kelgan barqaror birikmalar maqollar sanaladi. Maqollar xalqning xayotiy tajribasi donishmandligi natijasida maydonga

keladi. Ular nutq jarayoniga qadar tilda tayyor xolda barkaror birikma sifatida mavjud buladi. So‘zlovchi bunday birikmalarni yaxlit holda nutqqa olib kiradi.

Maqollar fikrni ta’sirchan buyokdor kilib ifodalovchi qudratli vositadir. Nutqda maqollardan o‘rinli foydalanish so‘zlovchining mahorati sanaladi.

Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan madaniyatimizning bir bo‘lagi hisoblangan maqollarni o‘rganish tadqiq qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmokda.

Maqollar-xalq tajribasi shodligi qaygusini o‘zida mujassam etgan bebaho meros sanaladi. Ularning kelib chiqishi necha ming yilliklarga borib takalmasin maqollar hech qachon eskirmaydi iste’moldan qolmaydi.

O‘zbek olimlaridan P.Bakirovning «Milliy g‘oya targ‘ibotida o‘zbek xalq maqollaridan foydalanish» nomli risolasi vatan, do‘stga bulgan munosabatlar va odob-axlokni shakllantirishga hissa ko‘shadigan maqol namunalaridan tuzilgan. G.Salomovning nomzodlik dissertatsiyasida ta’kidlashicha, «Maqol ---xalq akl idrokining mahsuli, turmushdagi turli vokea-hodisalarga munosabatining ifodasidir. Maqol kundalik hayotda kishilarning bir-birlari bilan muomalada bo‘lish jarayonida tug‘iladi»-deydi.

Ma’lumki xalq maqollarining mazmun ko‘lami inson hayotining turli sohalarini qamraydi. Inson xayotidagi vokea-hodisalarining cheki yo‘k ekan maqollar mazmuni chegarasini xam o‘lchab bo‘lmaydi. Maishiy hayotdagi kichik bir e’tiborga arzimaydigandek ko‘rinuvchi lavhadan tortib chukur falsafiy mushohada ifodasigacha maqollar mazmunida o‘z aksini topadi.

Maqollarni tasnif kilishning bir turida mazmun yetakchi hisoblanadi. Unga ko‘ra Vatan, mehnat, xalq, ilm-hunar, mardlik, mehmon ,tadbirkorlik, tejamkorlik, ota-ona, ona va bola, muxabbat va vafo, yaxshi suz—jami 30 ga yakin mavzular kayd etilgan. Ammo bu mavzularni kupaytirish xam kamaytirish xam mumkin. Muximi mazmun yetakchi bulgan tasnifda masalani xar tomonlama ifodalashga urinish anik seziladi.

O‘zbek xalq maqollari orasida ona-bola mavzusi aloxida urin tutadi. O‘zbeklar bolajon xalq bo‘lib maqollarda ona va bolaga kup e’tibor karatilgan:» Ona bilan bola---gul bilan lola « ; «Ona yesa bolaga sut buladi » (odatda emizikli ayolning istagan kungli tusagan ovkatini topib berishga harakat kiladilar. Xalqimizda xatto shunday kadimiy odat bor: kushnilar biror tansik taom pishirsalar shuni ozgina bulsa xam emizikli ayol bulgan xonadonga uzatadilar); «Bola yiglamasa ona sut bermas » ; «Bolalining bolasini bokkuncha ishini kil»; (birovning bolasini bokish ayniksa u shux yigloki bulsa ---nixoyatda kiyin . Undan kura usha odamning xar kancha ogir ishini kilish yaxshirok ma’nosida).

Bugungi kunda mamlakatimizda ona va bola sogligiga berilayotgan katta e'tibor bunga yakkol misol bula oladi. 2016 yilning «Soglom ona va bola yili» sifatida nomlangani va bugun xam onalar va bolalar sogligiga kursatilayotgan munosabat tobora shakllanib borayotgani mamlakatimiz miyosida soglom va barkamol farzandlarning dunyoga kelishiga jumladan bolalardagi tug'ma nuksonlarni oldini olish xamda onalar va bolalar o'limining keskin kamayishiga olib kelmokda.

Darhaqiqat, maqollarda xalq asrlar mobaynida tuplagan xayotiy tajribasi aks etadi va turli vositalar yordamida kelajak avlodlarga meros kilib koldiradi. Kuyida keltirib utadigan misollar xam zamonlar osha xalq donishmandligining muxim manbai sifatida ogizdan – ogizga utib saykallanib kelgan. «Bolaga «xovli» dema «xolva» de (bolaga tanish bulgan u tushunadigan munosib suzlar topib gap uktirishning uzi xam bir san'at ma'nosida); «Bolaginamning bolasi --kandak urik donasi»; «Bolam –bolim bolam bolasi –jonim»; «Danagidan magzi shirin»; «Bolali uy – bozor bolasiz uy mozor» (farzand --- oilaning boyligi kuvonchi ota – onaning tayanchi. Farzandning dunyoga kelishi birgina ota – ona uchun emas balki atrofdagi kishilar karindosh - urug yor-birodar kuni – kushni tanish – bilishlar uchun xam olam – olam kuvonch baxsh etadi.

Xalqimiz o'rtasida shunday bir olkish suz xam borki birovga: Rizk –nasibangiz kamaymasin bola – chakangiz kupaysin degan ma'noda «Qozon tula osh bulsin yostik tula bosh bulsin» -- deydilar. Bu maqollarda xam xalqimizga xos bulgan azaliy kadriyatlar mujassam bulgan. Farzand kurish har bir juftlik uchun kanchalik baxt bulsa farzandsizlik – katta baxtsizlik xisoblanadi. O'zbek xalq maqollarining bir turkumi mazmunida ana shu fikr urtaga tashlangan: Ko'y ko'zichogi bilan chiroyli xotin – chakalogi bilan»; «Bolali xotin –gul xotin bolasiz xotin – tul xotin»; «Bolasi yukning baxti yuk» va hakozi. Maqollarning ayrimlarida bola tarbiyasi masalasi kurilgan: «Bola aziz odobi undan aziz» «Bolani yoshdan urgat xotinni boshdan urgat»; «Bola tarbiyasi – beshikdan»; «Bolani yoshdan asra nixonni boshdan asra»; «Daraxtdan meva olaman desang nixolligidan parvarish kil»; «Bola – loy ona – kulob»; «Bola – tukkanniki emas tarbiyalaganniki» va xokazo.

Darhaqiqat, bugun biz texnika asrida yashar ekanmiz farzand tarbiyasi bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bulib kolmokda. Bu urinda maqollarni shaxs tarbiyasi va kamolotida yetakchi tarbiyalovchi vosita sifatida kursatib utish joizdir.

«Bolali o'rdak ko'ldan ketolmas, bolasi yosh eldan ketolmas» maqolida ota – ona bir bolani borkunicha kancha mashakkatlar chekishi ifodalangan. Bolalagan urdak esa xali ucha olmaydigan bolalarini tashlab ketolmaydi, ularni uzi och kolsada tuyintiradi.

«Bolang yomon bo'lsa xam, omon bo'lsin» bunda mubolag'a tarzda bulsa xam, ota-onaga uz farzandlarining sixat-salomatligi tugrisida nechoglik kaygurishi, ularning xamisha soglom va eson –omon yurishlarini chin dildan istashi, orzu kilishi ifoda etilgan. «Tukkanga suyunma, turganiga suyun» bu maqolni xalqimiz yangi tugilgan

chakaloklarning kadimda kupi kasalliklar tufayli vafot etishi tufayli iztirob bilan aytgan. Xatto, buni oldini olish uchun irim kilib bolalariga Tuxtasin, Tursunoy, Turgun, Xayot, O'lmas singari ismlarni kuyganlar.

«O'nta bo'lsa o'rni boshka, kirkta bulsa –kiligi» maqoli uzbek xalqining bolajonligi namunasidir.

Maqollar tugallangan fikrni bevosita ifodalaydi. Maqollar tarkib va mazmun nuktai nazaridan yakkol kuzga tashlanib turganligi sababli, ularni boshka turgun birikmalardan farklash kiyin emas. Maqollarning tarkibi kupincha kushma gap tarkibiga uxshaydi. Keltirilgan fikr va misollardan kurinib turibdiki, maqollar talkini va taxlili bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir, zero tafakkurni shakllantirish, kadriyatlarimizni e'zozlash, farzandlarimizni vatanga sadokat ruxida tarbiyalashda xalqimizning xayotiy tajribalari asosida vujudga kelgan uzbek xalq maqollarining urni bekiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Узбек халқ мақоллари. – Тошкент: «Шарк» НМАК бош тахририяти 2005 йил.
2. Хикматнома. Ўзбекистон энциклопедияси. – Тошкент : Гафур Гуломномидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990 йил.
3. Xolmirzayev, Sh. O'lis yulduzlar ostida. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981.
4. Quronov, D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
5. Sulton, I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005.
6. Boboyev, T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.